

**“TIQXMMI” MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI TALABALARINING TA’LIM GRANTIGA
TALABGORLARNING ANIQLASH BO’YICHA BAHOLASH**

MEZONLAR

1. KITOBXONLIK MADANIYATI 20 BALGACHA

-Bunda talabalar tomonidan siz 12 ta tavsiya etilgan kitoblardan 100 ta test savollariga javob berishingiz talab etiladi.

-Teslar onlayin tartibda o'tkaziladi va maksimal 20 ballik tizimda baholanadi.

**2. 5 MUHIM TASHABBUS DOIRASIDAGI TO'GARAKLARDA FAOL ISHTIROKI
20 BALGACHA**

-Bunda talabalar klub va to'garak raxbarligi uchun 20, a'zoligi uchun 10 ballni qo'lga kiritadi.

Bir vaqtni o'zida bir necha klublarga a'zo bo'lishi mumkin lekin maksimal 20 balgacha to'plash imkoni bor.

Buning uchun klub yoki to'garak raxbaridan ma'lumotnom aolib maxsus platformaga yuklash talab etiladi.

3. TALABANING AKADEMIK O'ZLASHTIRISHI 10 DAN 5 BALGACHA BALGACHA

Talabalarni akademik o'zlashtirish ko'rsatkichi quyidagi tartibda baholanadi: Ushbu band dekanatlar tomonidan to'ldirilib boriladi.

GPA ko'rsatkichi 5 bo'lganda 10 ball;
GPA ko'rsatkichi 4,9 bo'lganda 9,7 ball;
GPA ko'rsatkichi 4,8 bo'lganda 9,3 ball;
GPA ko'rsatkichi 4,7 bo'lganda 9 ball;
GPA ko'rsatkichi 4,6 bo'lganda 8,7 ball;
GPA ko'rsatkichi 4,5 bo'lganda 8,3 ball;
GPA ko'rsatkichi 4,4 bo'lganda 8 ball;
GPA ko'rsatkichi 4,3 bo'lganda 7,7 ball;
GPA ko'rsatkichi 4,2 bo'lganda 7,3 ball;
GPA ko'rsatkichi 4,1 bo'lganda 7 ball;
GPA ko'rsatkichi 4 bo'lganda 6,7 ball;
GPA ko'rsatkichi 3,9 bo'lganda 6,3 ball;
GPA ko'rsatkichi 3,8 bo'lganda 6 ball;
GPA ko'rsatkichi 3,7 bo'lganda 5,7 ball;
GPA ko'rsatkichi 3,6 bo'lganda 5,3 ball;
GPA ko'rsatkichi 3,5 bo'lganda 5 ball.

4. TALABANING OTM ICHKI TARTIB QOIDALARI VA ODOB-AXLOQ KODEKSIGA RIOYA ETISHI 5 BALGACHA 5 BALLIK TIZIMDA BAHOLANIB BORILADI.

Ushbu band dekanatlar va tyutorlar tomonidan to'ldirilib boriladi.

-kiyinish madaniyati dreskot talablariga rioya etilishi 2-balgacha

-Odob-axloq kodeksiga belgilangan talablariga rioya etilishi 3 balgacha baholab boriladi.

5. XALQARO, RESPUBLIKA, VILOYAT MIQYOSDAGI KO'RIK-TANLOV, FAN OLIMPIADALARI VA SPORT MUSOBAQALARIDA ERISHGAN NATIJALARI 10 BALGACHA BAHOLANIB BORILADI.

-Bunda talabalar tomonidan tanlovlarda yutganligini tasdiqlovchi diplom va sertifikatlarini platformaga yuklab borishi talab etiladi.

-Ta'lim muassasasi bosqichida 1-2-3-o'rinni egallagan talabalar mos ravishda 1-3 balgacha baholanadi.

-Viloyat hududiy bosqichlarda 1-2-3-o'rinni egallagan talabalar mos ravishda 4-6 balgacha baholanadi.

-Respublika bosqichlarda 1-2-3-o'rinni egallagan talabalar mos ravishda 7-9 balgacha baholanadi.

-Xalqaro miqyosida 1-2 hamda 3-o'rinni egallagan talabalar 10 bal bilan baholanadi.

6. TALABANING DARSLARGA TO'LIQ, KECHIKMASDAN KELISHI. BU BAND HAM DEKANATLAR VA TYUTORLAR TOMONIDAN 5 BALLIK TIZIMDA BAHOLANADI.

-1 semestr davomida 10 soatgacha dars qoldirish maksimal balni tushishiga sabab bo'lmaydi.

-10 soatdan 20 soatgacha dars qoldirish 3-4 bal bilan baholanadi.

-20 soatdan 30 soatgacha dars qoldirish 2-3 bal bilan baholanadi

-1 semestr davomida 30 soatdan ortiq dars qoldirgan talabaga bal berilmaydi.

7. TALABALARNING "MA'RIFAT DARS"DAGI FAOL ISHTIROKI. BU BAND HAM DEKANATLAR VA TYUTORLAR TOMONIDAN 10 BALLIK TIZIMDA BAHOLANADI.

-O'quv yili mobaynida o'tkazilgan "Ma'rifat darslari"ning 90% - 100% ishtirok etgan talabalar 6 bal bilan baholanadi.

-70% - 80% ishtirok etgan talabalar 4 bal bilan baholanadi.

-60% - 70% ishtirok etgan talabalar 2 bal bilan baholanadi.

-O'quv yili davomida "Ma'rifat darslari"dagi faolligi 4 balgacha baholanadi.

8. VOLONTYORLIK VA JAMOAT ISHLARIDAGI FAOLLIQ. BU BAND BO'YICHA TALABALAR TOMTONIDAN ASOSIY HUJJATLARNI PLATFORMAGA YUKLATILISHI TA'LAB ETILADI.

-Bunda "O'zbekiston volunteer assosiation" ro'yxatdan o'tgan volontyorlik guruhlaridan olingan ma'lumotnoma yoki universitetimizda tashkil etilgan volontyorlik xarakati raxbaridan olingan ma'lumotnoma asos bo'ladi.

-Bundan tashqari turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, umumxalq bayramlari, umumxalq xasharlari universitet tomonidan tashkil etilgan jamoatchilik ishlarida tashkilotchiligi, tashabbuskorligi inobatga olinadi.

-Ushbu ishlar uchun esa tyutordan ma'lumot olib maxsus platformaga yuklash talab etiladi.

-Bajarilgan ishlar komissiya tomonidan 5 ballik tizimda baholanadi.

9. TEATR VA MUZEY, XIYOBON, KINO, TARIXIY QADAMJOLARGA TASHRIFLAR. BU BAND HAM DEKANATLAR VA TYUTORLAR TOMONIDAN 10 BALLIK TIZIMDA BAHOLANADI.

Talabalarning teatr muzeylar, kino zallarga tashriflar soni Qoraqalpog'iston Respublikasi, Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo'qon va yurtimizdagi boshqa tarixiy maskanlarda qilingan sayoxatlar inobatga olinadi. Va quyidagicha baholanadi.

-Har oyda kamida 1 marotaba tashrif 5 bal:

-Har ikki oyda kamida 1 marotaba tashrif 3 bal:

-Semestrda kamida 1 marotaba tashrif 1 bal:

10. TALABANING SPORT BILAN SHUG'ULLANISHI VA SOG'LOM TURMUSH TARZIGA AMAL QILISHI.

Bu bandda sport klubi raxbari, to'garak raxbarlari hamda tyutoringizdan olingan ma'lumotnomalarni platformaga yuklashingiz talab etiladi.

Talabaning sport bilan shug'ullanishi va sog'lom turmush tarziga amal qilishi quyidagicha baholanadi.

-Talabalning sport klubiga a'zoligi. Ma'lum sport turi bo'yicha Oliy ta'lim tashkiloti terma jamoa a'zoligi 5 bal:

Sport klubiga a'zoligi, sport seksiyalariga yoki sport to'garaklarida muntazam sport bilan shug'ullanishi 3 bal:

Universitetda o'tkazilgan sport musobaqalaridagi faol ishtiroki 1 bal:

O'qish davomida turli zararli illatlar ichish, chekishdan xoli ekanligi 2 balgacha:

Tozza, ozoda yurish, saranjon, sarishtaligi jumladan talabalar turar joyida yoki ijara xonadonida yashash vaqtidagi tozzakda rioya etishi maksimal 2 bal bilan baholanadi.

11. MA'NAVIY-MA'RIFIY SOHAGA OID BOSHQA YO'NALISHLARDAGI FAOLLIGI UCHUN

Talabaning tengdoshlari o'rtasida hamda ijtimoiy tarmoqlarda faolligi, vatanparvarlik, taraqqiyparvarlik, ilm-ma'rifat, tarbiya yo'nalishlardagi targ'ibot ishlarida ishtirok etishi va boshqa tashabbuskorligi asosida 5 ballik tizimida quyidagicha baholanadi:

hamkor tashkilotlar bilan hamkorlikda o'z tashabbusi bilan ma'naviy-ma'rifiy tadbir tashkil etilishi – 3 ball;

Adiblar xiyobonida va boshqa xiyobonlarda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etishi– 2 ball;

ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etishdagi faol ishtiroki uchun – 1 ballgacha baholanadi.

*(**Izoh:** Qoida tariqasida talaba muayyan sabab bilan (misol uchun, OTMning ichki tartib qoidalari, Odob-axloq kodeksi talablarini buzganligi uchun) intizomiy jazoga tortilganda “Ijtimoiy faollik indeksi”da to‘plagan balidan 15 ballgacha olib tashlanishi mumkin.)*